

SPORT JAMOALARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO`RSATISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Daniyarov Nokisbay Polatovich

Annotatsiya: maqolada sport jamoalarida psixologik xizmat ko`rsatishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o`rganilgan. Shuningdek sport jamoalarida psixologik xizmat ko`rsatishni tashkil etish va uning samaradorligini oshirish borasidagi nazariy bilimlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: psixologik xizmat, emotsional kechinmalar, psixodiagnostik dastur, metodologik asos, obyektiv va subyektiv aks ettirish.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СПОРТИВНЫХ КОМАНДАХ

Данияров Нокисбай Полатович

Аннотация. в статье рассмотрены социально-психологические особенности оказания психологической помощи спортивным командам. Освещены также теоретические знания по организации и повышению эффективности психологической службы в спортивных командах.

Ключевые слова: психологическая служба, эмоциональные переживания, психодиагностическая программа, методологическая основа, объективное и субъективное отражение.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PSYCHOLOGICAL SERVICE IN SPORTS TEAMS

Daniyarov Nokisbay Polatovich

Annotation: the article explores the socio-psychological characteristics of psychological service provision in sports communities. Also highlighted are theoretical knowledge on the organization of psychological service in sports teams and its effectiveness.

Key words: Psychological service, emotional experiences, psychodiagnostic program, methodological basis, objective and subjective reflection.

Dunyo mamlakatlarida jamoaviy sport turlarini ommaviylashtirish, uning zamonaviy bosqichga olib chiqish va raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash ijtimoiy siyosatning ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta`kidlash joizki, jahonda jamoaviy sport turlarini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni sportga keng jalb etish, ularda sport ko`nikma va

malakalarini shakllantirish, sportchilarni psixologik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish, sport faoliyatida psixologik xizmatni to'g'ri tashkil etish va uning samaradorligini aniqlash, sport jamoalari faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun unga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni oldini olish, bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq qilish, musobaqa oldi o'quv mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil qilish yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jahonda bugungi kun talablariga mos sportchilarni tayyorlash uchun ularni jismoniy imkoniyatlari bilan bir qatorda psixologik tayyorgarligiga ham alohida e'tibor qaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Psixologik xizmat metodologiyasi va uning ilmiy talqini, sport sohasida psixologik xizmatni tashkil etish, uni samaradorligini baholash hamda sportchilarni psixologik tayyorlashda psixologik xizmatni o'rni masalalari xorij tadqiqotchilari A.Bandura, R.B.Catell, X.Xekxausen, Z.Freyd, A.Maslau, E.Fromm, R.S.Uensberg, A.Ts.Puni, R.S.Uensberg larning ilmiy izlanishlarida keng aks etgan.

Hozirgi zamon ijtimoiy psixologik tadqiqotlar masalasi, ayniqsa uning amaliy vazifalari sotsial psixologiyaning markazida turuvchi psixologik va sotsiologik yondashuv yo'nalishlari asosida hal qilinmoqda. Amerika va g'arb davlatlarida ikki turdagi ijtimoiy psixologiya: "psixologik ijtimoiy psixologiya" va "sotsiologik ijtimoiy psixologiya" yo'nalishlari mavjuddir. Bu yo'nalishlar bir-biriga o'xshasa-da, ularning farqli jihatlari ham mavjud. Ya'ni, psixologik ijtimoiy psixologiya shaxs va faoliyat, muomala, jamoadagi shaxslararo munosabat, shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishi, shaxsning kognitiv, konativ, xulq-atvor imkoniyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy ustanovkalar, shaxs va jamoaning ijtimoiy-ruhiy kechinmalari kabi muammolar ustida tadqiqot olib borishni maqsad qilib olgan bo'lsa, sotsiologik ijtimoiy psixologiyada esa ko'pincha jamiyatning ijtimoiy qatlamlarini tahlil qiluvchi xalqlar psixologiyasi, ommaviy hodisalar psixologiyasi, sinflar, guruh va jamoalar, gumanistik psixologiya kabilarga alohida e'tibor qaratiladi. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko'proq birinchi yo'nalish- "psixologik ijtimoiy psixologiya" asoslari zahirida tarkib topadi. Ta'kidlash joizki, har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yo'nalishni ochib beruvchi metodik qurilmalarning tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, aniq metodologiya bo'lmagan sohada amaliy natijalar ham ko'zga tashlanmaydi. Zero, ijtimoiy psixologiya fanining yana bir muhim yangi vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog'liq nazariy, amaliy va empirik yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini belgilashning bugungi kungacha nechog'li hal qilinayotganligini tahlil qilishga to'g'ri keladi. Bu borada psixologiya olamida bugungi kungacha aniq va mukammal tarzda ishlab chiqilgan va rasmiy tarzda tan olingan yagona ilmiy yo'nalish yoki kontseptsyaning qabul qilinmaganligi ma'lum bo'lsa-da, ilg'or g'arb psixologlari, MDH va O'zbekiston psixologlari tomonidan olib borilgan va olib borilayotgan (eksperimental izlanishlarga yo'l ochib berilayotgan) tadqiqotlar mavjudki, ular muhim jihati bilan psixologik xizmat modeli va uning psixologik himoya vositasi sifatidagi mohiyati, ahamiyati va ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy-amaliy tasavvurlarimizni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, ijtimoiy psixologik xizmat metodologiyasining

umumiy yo`nalishlari g`arb ijtimoiy psixologiya namoyondalari tadqiqotlarini quyidagicha izohlash mumkin: V.Vundtning 1900 yilda chop etilgan “Xalqlar psixologiyasi” nomli yirik (o`n tomlik) epik asari ijtimoiy psixologiya yo`nalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma`naviyati, madaniyati va mafkurasini o`rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi. Taniqli ingliz psixologi Vilyam Makdugallning 1908 yilda yozilgan “Ijtimoiy psixologiyaga kirish” asaridagi “ijtimoiy xulq-atvor instinktlari” nazariyasi freydizmga qarshi o`laroq inson instinktlari va faoliyat uyg`unligini ta`minlash muammosini yoritishga ilk bor asos bo`lib xizmat qildi. Binobarin, E.Fromm, J.Saliven, V.Shutts, G.Sheparde, V.Bayon kabi olimlar tomonidan jamoalar psixologiyasi nazariyasini yaratishga asos solindi. Bunda turli xil ijtimoiy psixologik treninglar orqali jamoalardagi shaxslararo munosabatlar bilan bog`liq psixologik iqlimni kamol toptirish yo`llarining ilk bor ko`rsatilishi sport jamoalaridagi ijtimoiy psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun ma`lum darajadagi empirik ma`lumot sifatida xizmat qilishi mumkin.

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e`tibor berish masalasi hamma vaqt va ko`p mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi vazifalaridan biri bo`lib kelgan. XX asr boshlarida psixologiya fani va uning rivojlanishiga ulkan hissa qo`shgan olimlar o`zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari- inson va jamiyatga psixologik xizmat ko`rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo`ldilar.

Umuman, psixologik xizmat ko`rsatish muammosi ma`lum ma`noda, ilmiy psixologiyaning etakchi yo`nalishlaridan biri sifatida ko`p bor munozaralar markazidagi dolzarb masala sifatida qarab kelingan. Bu haqida dastlabki psixologik tasavvurlar makoni Hindiston, Xitoy, egipet, Vavilon, O`rta Osiyo, Gretsiyadan, shuningdek, jon (ruh) haqidagi kitobning muallifi Aristoteldan hamda temperament (mijoz) ta`limotining asoschilari Galen va Gippokratdan tortib, hozirgi kunga qadar psixologlar o`z fikr-mulohazalarini bildirib kelmoqdalar. Zero, shaxs va uning faoliyatini ilmiy o`rganish muammosiga psixologiyaning amaliy-tatbiqiy yo`nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko`pgina olimlar o`z tadqiqotlarida ta`kidlab o`tgan.

Ayniqsa, I.V.Dubrovina, X.Y.Liyemets, Yu.L.Sierdlarning ko`p yillik tadqiqotlari natijasi o`laroq, sport jamoalarida psixologik xizmatning joriy etilishi bu boradagi MDH mamlakatlarida qo`yilgan ilk qadam ekanligini alohida qayd etish mumkin.

Psixologik xizmat AQShda 1800 yillardan boshlab rivojlana boshladi. AQShning amaliyotchi psixologlari o`z-o`zini boshqarish va shakllantirish muammosini o`rgangan eksperimental tadqiqot olib borgan etakchi mutaxassis edilar. Amerika maktablarida aqliy taraqqiyot koeffitsentini aniqlash keng tarqalgan bo`lib, keyinchalik Gaydens xizmatining rivojlanishiga olib kelgan.

Frantso`z maktab psixologiyasining otasi Alfred Bine bo`lib, u bu sohada 1894 yildan boshlab ish boshlagan. 1905 yilda Frantsiya ta`lim vazirligi A.Binega umumiy dastur bo`yicha o`qiy olmaydigan bolalarni tekshirish muammosi bilan murojaat qilgan va aqliy taraqqiyotdan orqaga qolgan bolalarni aniqlaydigan mashhur Bine-Simon testi yaratiladi.

1990 yilda Frantsiya ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. 1970 yilda Frantsiyada psixologik yordam ko'rsatuvchi maxsus guruhlar ish faoliyatni boshladi va ular psixologik xizmat ko'rsatishning ta'minlovchi dasturini ishlab chiqishdi. Bunday guruhlar maktab psixologiyasi mutaxassisi, ta'lim psixologiyasi mutaxassisi va psixomotor rivojlanish bo'yicha mutaxassislarni o'z ichiga olgan. Bu guruhlarda 800-1000 nafargacha bo'lgan o'quvchiga psixologik xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan. 1985 yilda Frantsiya psixologlarining funktsiyalarini aniq bir yo'nalishga soladigan mexanizm yaratildi. Ko'pchilik Sharqiy evropa mamlakatlarida ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni ko'rsatish tuman yoki viloyat miqyosidagi psixologik-pedagogik markazlar tomonidan amalga oshirilgan. Psixologik xizmatning asosiy mazmuni-sog'lom shaxsning o'sishini ta'minlash, shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish, kasb tanlash muammolaridan iborat bo'lgan. Chexoslovakiya davlatida psixolog maslahatchining asosiy funktsiyasi psixodiagnostik faoliyatni olib borishdan iboratdir.

“Jamoaviy sport” faoliyat sifatida shunchalik murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga egaki, unda eng yuqori, muhim va uzoq muddatli muvaffaqiyatga faqatgina uning o'ziga xos muhim talablariga javob bera oladigan nomdor va e'tibor qozongan sport jamoalari erishadilar. Har doim sport faoliyati natijasining yuqori ahamiyati va unga mas'uliyatlilik mazkur faoliyatni amalda tengi yo'q faoliyat deb belgilash imkonini beradi. Sharoitlarning alohida o'ziga xosligi sportchilar uchun ahamiyatli kechinmalar kompleksi manbai hisoblanib, sport faoliyatining alohida vaziyatlarini, jumladan, murakkab vaziyatlarni, buning orqasidan esa, sportchining butun hayot faoliyatini ham o'zgartirib yuboradi va mazkur faoliyatni salbiy kechinmalar modeli, ya'ni uni doimiy bartaraf etish va unga qarshi kurashish modeli sifatida qarab chiqishni taqozo etadi. Boshqa modellardan farqli o'laroq, salbiy emotsional kechinmalar sport faoliyatining muhim belgisi hisoblanadi va muvaffaqiyatga teskari ta'sir ko'rsatayotgan salbiy kechinmalarning yuzaga kelishi haqida signal beradi. Bundan tashqari, olimlar sport faoliyatining boshqa mezonlarini o'rganib, quyidagilarga alohida e'tibor qaratganlar:

- uning jamoaviy munosabat va muvaffaqiyatga yo'naltirilganligi;
- shart-sharait va imkoniyatlarning yaratilganligi (ham mashqlarda, ham musobaqalarda);
- sportda kichik jarohat olish ehtimoli mavjudligi;
- jamoaviy sport faoliyatning (uzog'i bilan o'n yilgacha) “umri qisqaligi”.

Bunday murakkab sport faoliyatni bajarish natijasida sportchilar o'zining butun sportdagi hayoti mobaynida turli xil salbiy psixik holatlarga tushib qoladi, ularni bartaraf etish va engish muvaffaqiyati esa to'g'ridan to'g'ri sport faoliyatning o'zidagi yutuqlar bilan aloqador hisoblanadi.

Tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha adabiyotlar tahlili va empirik tahlillarimiz natijalari sport jamoalari faoliyatiga ta'sir etadigan salbiy emotsional kechinmalarni shartli ifoda etuvchi shaxsiy maydonni loyihalash imkonini berdi. Mazkur shaxsiy maydonni

loyihalash tuzilmasiga tayanish asosida sportchilar faoliyatida salbiy hissiy kechinmalarni muvafaqqiyatli bartaraf etish va engishning ijtimoiy-psixologik modelini ishlab chiqishga erishdik.

Jamoaviy sport faoliyatida salbiy emotsional kechinmalarni muvafaqqiyatli bartaraf etish, unga qarshi kurashish va engishning ijtimoiy-psixologik modeli bugungi kunda sport jamoalari uchun muhim ahamiyatga ega bo`lib, u quyidagi to`rt blokni o`z ichiga oladi: a) maqsadli blok; b) mazmunli blok; v) jarayonli blok; g) psiodiagnostik bloklardir. Model sport faoliyatida ta`sir ko`rsatadigan salbiy emotsional kechinmalarni engish, unga qarshi kurashish va bartaraf etishning dinamikasini ta`minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Davlatshin M.G. «Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya». «O`qituvchi» nashriyoti. Toshkent-2002.
2. V.A.Marshiuk. Metodiki psixo-dagnostiki v sporte. Maskva «Proveshyeniye». 2001.
3. Melnikova. Psixologiya. Maskva «Fizkulturai sporti», 2002.
4. A.Q.Munavvarova., M.Ma`murov. Yaproq ildizdan quvvat oladi. Toshkent, 1990-yil.
5. B.I. Beduy. Test Rorshaxa. Praktika i teoriya // Pod red. L.N.Sobchik. SPb., "Dorval", 1992.
6. Burlachuk L.F. Psixodiagnostika. Uchebnik dlya vuzov. -Spb.gPiter, 2007.-352 s.
7. V.M Karimova. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T.: Fan, 1994 y. 143 b
8. Puni A.S. Voprosy psixologicheskoy podgotovki k sorevnovaniyam. Sankt-Peterburg-1997.